

Course: Islamic Finance

**Lecture 5: Islamic Banking Services
(Partnership based)**

Prepared by: Dr. Shaamirova Surayyo

5- MAVZU: MUDARABA

1. Mudaraba tamoyili.

Tayanch so‘z iboralar: Vadia, Qarzi hasan, rahn,vadiya, bay inah, ujr, urbun, vakolat, tavarruq.

Islomiy banklar an’anaviy banklar singari mijozlardan omonatlar qabul qiladi va bu ularning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Islom foizlar hisoblash va olishni – riboni man etgani uchun islomiy banklar o‘z mijozlariga islomiy me‘yorlarga muvofiq keladigan bank xizmati ko‘rsatishlari lozim bo‘ladi. Bank o‘z xizmatlarini taklif etguniga qadar rahbariyat, eng avvalo, islomiy huquqning mutlaq va bosh manbalari Qur’on va hadislarga murojaat etishlari kerak.

Biznesga oid barcha tamoyil va taqiqlar, albatta, diqqat bilan o‘rganilishi lozim. Alloh taolo Qur’onning ko‘plab oyatlarida poraxo‘rlikni taqiqlagan va ishonch, adolat ila tarozi va o‘lchovdan foydalanishga chaqirgan.

Bundan tashqari Qur’onda tomonlar o‘rtasidagi kelishuv yozma tartibda guvohlar ishtirokida rasmiylashtirilishi, tomonlarning majburiyatlari va kafolatlari belgilangan bo‘lishi lozimligi aytib o‘tilgan. Hadislarda oldi-sotdi masalasida bir qancha echimlar ko‘rsatib berilgan. Ba’zi hadislarda islomiy bitimlarning mana shunday, ya’ni salam (oldi-sotdi shartnomasi bo‘lib, tovarlar etkazilish muddati uzaytirilishi mumkin: tovarning qiymati oldindan to‘lanadi va taraflar kelishgan muddatda etkazib beriladi), yollash, havola (veksel, tilxat), qarzlarni, kreditlarni so‘ndirish, aktivlarni muzlatish, bankrotlik, sherikchilik, ijara, tadbirkorlikning shartlari va guvohnomasi tomonlari ko‘rsatib o‘tilgan. Qur’onda moliyaviy

faoliyatga doir bir qancha oyatlar va hadislar kelganiga qaramay, zamonaviy bank tizimida ta'kidlangan tamo-yillarni qo'llash murakkabdek tuyuladi. Demak, islomiy olim va huquqshunoslar (islom qonunchiligi sohasi ekspertlari) zimmalariga mas'uliyatni olgan holda shariat qoidalarini buzmaydigan va joriy bank qonunchiligiga muvofiq keladigan biznes yuritish tamoyillarini o'rnatishlari kerak bo'ladi.

Islomiy banklar xizmat ko'rsatish usullari tarkibini tashkil etadigan islomiy tamoyillarni ifodalovchi turli atamalardan foydalanadilar. Ayrim islomiy banklarda arab atamalaridan, boshqalarida arab va ingliz tili aralashmasidan va yana birlarida bank faoliyati amalga oshirilgan mamlakatning mahalliy tilidan foydalanilayotganini ko'rish mumkin.

Shariat tamoyillari asosida islomiy bank ishi yuritayotgan mamlakatlar to'g'risida keyingi boblarda tanishib chiqamiz.

Qanday atamalardan foydalanishidan qat'i nazar, islomiy bank tizimidagi shariat tamoyillarini 5 toifaga ajratish mumkin. **Birinchi** toifa foyda va zararlarni taqsimlash tamoyili, **ikkinchisi** oldi-sotdi tamoyili, **uchinchi** toifa o'z ichiga yig'im va komissiyalarni oladi. **To'rtinchi** toifa bepul xizmat tamoyillarini, **beshinchisi** esa yordamchi tamoyillarni bayon etib beradi.

Quyidagi tamoyillar aksariyat islomiy banklar tomonidan ko'p holatlarda amaliyotda ishlatiladi: muzoraba, mushoraka, murobaha, ijara, ijara val-iqtino, muajjal bay, istisno', qarzi hasan, vadia, rahn. Sanab o'tilganlardan tashqari islomiy moliyalarning boshqa tamoyillaridan ham amaliyotda foydalaniladi. Masalan, Malayziyada dayn bay, ijara tumma bay, vakolat, havola, ujr va vadia yad damana tamoyillari tarqalgan. Eronda ham bir talay qo'shimcha tamoyillar: joala, mozaraax, mosakat kabi tamoyillar kiritilgan. Bunday ko'p miqdordagi shariat tamoyillarining ishlatilishi ba'zi taxminlarga sabab bo'ladi va ushular haqiqatdan ham shariatga asoslangan islomiy moliyalash vosi-talarimi yoki hiylalarmikan, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Hiyla – musulmon huquqchiligida shariatga unchalik muvofiq kelmaydigan turli huquqiy sxemalarni ish-latib, ma'lum maqsadga erishish yo'llaridir. Islom huquq-shunoslari o'rtasida hiyla kontseptsiyasiga bir xil munosabat mavjud emas.

Hanafiy huquqiy maktabi shariat mahsulotlarini yaratishda mazkur kontseptsiyani qo'llashni ma'qullagan. Shofe'-iylar huquqiy maktabiga kelsak, garchi maktabning keyingi davomchilari hiylani ma'qullashsa-da, umuman olganda bu yo'nalish mavqeiga ziddir. Ikki boshqa huquqiy maktab (Molikiy va Hanbaliy) bu kontseptsiyadan foydalanishga qarshilik qilishadi. Molikiy mazhabi tomonidan saddad-daro'i tamo-yili belgilangan maqsadga erishish uchun qonunan ruxsat berilgan har qanday usulni, agar u dastlabki paytdanoq noqonuniy xarakterga ega bo'lgani yoki harom toifaga muvofiq kelgan hollarda sababning oldini olish tamoyili amalga kiritilganligi hiylani man etishni tasdiqladi. Hanbaliya mazhabi tomonidan ham hiyla kontseptsiyasidan foydalanishga qarshi ko'plab chiqishlar qilib kelinmoqda.

2. Muzoraba tamoyili

“Muzoraba” atamasi islomiy banklar tomonidan tez-tez foydalanib turiladi. Bu tamoyil, shuningdek, qiroz yoki muzoraba nomi bilan ham mashhur. Olimlar bu atamaning bir qancha tarjimalarini keltirib o'tishgan, ular orasida ishonch asosida moliyalashtirish, vakolatli shaxslar o'rtasida foydani taqsimlash, xususiy kapitalni va foydani taqsimlashni sanab o'tish mumkin.

Boshqa so'z bilan aytganda, mablag' egasi (investor) mab-lag'ni biznesni yuritish uchun ishonchli shaxsga (tadbirkorga, biznesmenga) beradi. Investor biznes yuritish jarayoniga aralashmaydi va kelishilgan muddat yakunida tadbirkor investorga asosiy quyilma miqdorini va uning foydadan ulushini qaytaradi. Bu tamoyil arablarda Islomdan oldingi davrlarda ham, hozirda ham keng tarqalgan (Saleh, 1986). Mashhur Islom fiqhshunosi Imom Saraxsiy o'zining “Al-Mabsut” kitobida muzoraba atamasi va uning kelib chiqishi haqida o'z tavsiflarini bayon qilgan. Uning so'zlariga ko'ra “muzoraba” so'zi “zarb” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, erga ishlov berish ma'nosini anglatadi. Imom Saraxsiyning fik-richa, bu o'zakning muzoraba so'ziga aylanishi muzorib (birovning kapitalini (mablag'ini) ishlatuvchi) o'zining og'ir mehnati va sa'y-harakatlari evaziga foydadan ulush olish huquqiga ega bo'la olishini bayon etadi.

Bundan tashqari muzorib o‘ziga ishonilgan kapitalni o‘zining maqsadlariga erishish uchun ishlatishi mumkin. Madinalik kishilar bunday shartnomani *muqoroza* deb atashgan. Muqoroza qarz so‘zidan kelib chiqadi va berish ma’nosini ang-latadi. Bu holatda kapital egasi mablag‘ini yoki undan foydalanish huquqini omilga, ya’ni foydalanuvchiga beradi.(Uzair, 1980, 45-bet)

Ibn Rushd o‘zining “Bidoyat ul-mujtahid val nihoyat ul-muqtasid” kitobida shunday yozadi: *“Qiroz tamoyilini ishlatishning adolatli ekanligi to‘g‘risida musulmonlar yakdil fikrdalar. Bu tamoyil Islomdan oldingi arablarda ham amal qilar edi, Islom ham uni man etmadi. Mablag‘ egasi uni foydalanuvchi tarafga (hamkorga) ishlatish uchun berishi to‘g‘risidagi olimlarning fikri yakdildir. Foydalanuvchi kelishuv shartlariga muvofiq foydaning ikkala tomon ma’qullagan – uchdan, to‘rt dan bir qismini yoki yarmini ham olishi mumkin”*. (Uzair, 1980, 45–46-betlar)

Yuqorida bayon etilganiday, muzoraba tamoyili kamida ikki kishi o‘rtasidagi kelishuv hisoblanib, ya’ni rab al-mol (inves-tor) va muzorib (tadbirkor yoki menejer) o‘rtasida tuziladi.

Kelishuv shartlariga ko‘ra investor korxonani moliyalashtirish majburiyatini oladi yoki belgilangan tartib asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritayotgan tadbirkorga o‘z kapitalini ishonib beradi, tadbirkor keyinchalik quyilma miqdorini va oldindan kelishilgan foydadan keladigan ulushni investorga qaytarishi shart. Foyda ulushi shartnoma bilan belgilanadi va quyilma muvaffaqiyati to‘g‘risida investorga oldindan hech kim kafolat bermaydi. Agar zarar ko‘riladigan bo‘lsa, fors-major va muzoribga bog‘liq bo‘lmagan boshqa holatlardan tashqari holatlarda investor barcha “zarba”ni o‘ziga oladi. Muzorib o‘z navbatida faqat vaqt va mehnatini behuda yo‘qotadi.

Turli mazhab namoyandalari orasida mazkur tamoyilni amaliyotlarda ishlatish bo‘yicha yakdil fikr yo‘q. Molikiy va Sho-fe’-iy mazhablari muzoraba faqat savdo va unga bog‘liq faoliyat bilan cheklanishi lozim, deb hisoblaydi. Muzorabani ishlab

chiqarishga talqin qilish mumkin emas, chunki bunday kelishuv tayyorlovchi bilan shartnoma sifatida talqin etiladi va *istisno*‘ deb ataladi.

Istisno‘ shariat nuqtai nazaridan xaridor ishlab chiqa-ruvchiga ishlab chiqaruvchining xomashyosidan foydalangan holda kelishilgan baho asosida shartnomada ko‘rsatilgan mahsulotni tayyorlab berishni iltimos qilgan shartnomadir. Istisno‘ kontseptsiyasi tovarni keyinchalik jo‘natish unsuri mavjud salam bay bilan juda o‘xshash. Lekin salam bayda bo‘naklashgan (avans) moliyalashtirish mavjud, istisno‘da esa to‘lov keyinroq – tovar tayyorlangach yoki olingach amalga oshiriladi.

Hanafiy mazhabi muzoraba tamoyilini ishlab chiqarish faoliyatida qo‘llanishiga qarshi emas. Hanbaliy mazhabi esa, o‘z navbatida, investor va tadbirkor o‘rtasida ikkita alohida kelishuv bitimi, ya‘ni istisno‘ tamoyili bilan tovar ishlab chiqarish va muzoraba tamoyili bilan boshqa bitimni tuzishni ma‘qul deb hisoblaydi – toki bu ikki bitim bir-biriga zid bo‘lib qolmasin. (Saleh, 1986)

Muzoraba tamoyili islomiy bank tizimida ikkita turli holatlarda qo‘llanishi mumkin: bank va mablag‘ni bankka beruvchi (etkazib beruvchi) o‘rtasida, bank va mablag‘ni ishlatuvchi (qarz oluvchi) o‘rtasida.

Birinchi holatda bank muzorib sifatida ish yuritadi, omonatchilar esa rab al-mol sifatida. Boshqasida esa bank rab al-mol sifatida, tadbirkor muzorib sifatida ish olib boradi. Muzoraba tamoyilini “islomiy bank tizimining oliyjanob tamoyili” deb ham atashadi, chunki u o‘zida shariat ma‘qullagan timsolni, ya‘ni inson mehnati va pul mablag‘lari timsolini aks ettiradi. Albatta, investor o‘z qo‘ygan investitsiyalarini qaytarish uchun ortiqcha kuch sarflamaydi, lekin u faoliyat yakuni muvaffaqiyatli bo‘lmagan taqdirda, xatar va zararni o‘z bo‘yniga olgan bo‘ladi.

5- MAVZU: MUSHARAKA

1. Musharaka tamoyili.

Tayanch soʻz iboralar: Vadia, Qarzi hasan, rahn,vadiya, bay inah, ujr, urbun, vakolat, tavarruq.

Islomiy banklar anʼanaviy banklar singari mijozlardan omonatlar qabul qiladi va bu ularning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Islom foizlar hisoblash va olishni – riboni man etgani uchun islomiy banklar oʻz mijozlariga islomiy meʼyorlarga muvofiq keladigan bank xizmati koʻrsatishlari lozim boʻladi. Bank oʻz xizmatlarini taklif etguniga qadar rahbariyat, eng avvalo, islomiy huquqning mutlaq va bosh manbalari Qurʼon va hadislariga murojaat etishlari kerak.

Biznesga oid barcha tamoyil va taqiqlar, albatta, diqqat bilan oʻrganilishi lozim. Alloh taolo Qurʼonning koʻplab oyatlarida poraxoʻrlikni taqiqlagan va ishonch, adolat ila tarozi va oʻlchovdan foydalanishga chaqirgan.

Bundan tashqari Qurʼonda tomonlar oʻrtasidagi kelishuv yozma tartibda guvohlar ishtirokida rasmiylashtirilishi, tomonlarning majburiyatlari va kafolatlari belgilangan boʻlishi lozimligi aytib oʻtilgan. Hadislarda oldi-sotdi masalasida bir qancha echimlar koʻrsatib berilgan. Baʼzi hadislarida islomiy bitimlarning mana shunday, yaʼni salam (oldi-sotdi shartnomasi boʻlib, tovarlar etkazilish muddati uzaytirilishi mumkin: tovarning qiymati oldindan toʻlanadi va taraflar kelishgan muddatda etkazib beriladi), yollash, havola (veksel, tilxat), qarzlarni, kreditlarni soʻndirish, aktivlarni muzlatish, bankrotlik, sherikchilik, ijara, tadbirkorlikning shartlari va guvohnomasi tomonlari koʻrsatib oʻtilgan. Qurʼonda moliyaviy faoliyatga doir bir qancha oyatlar va hadislar kelganiga qaramay, zamonaviy bank tizimida taʼkidlangan tamo-yillarni qoʻllash murakkabdek tuyuladi. Demak, islomiy olim va huquqshunoslar (islom qonunchiligi sohasi ekspertlari) zimmalariga

mas'uliyatni olgan holda shariat qoidalarini buzmaydigan va joriy bank qonunchiligiga muvofiq keladigan biznes yuritish tamoyillarini o'rnatishlari kerak bo'ladi.

Islomiy banklar xizmat ko'rsatish usullari tarkibini tashkil etadigan islomiy tamoyillarni ifodalovchi turli atamalardan foydalanadilar. Ayrim islomiy banklarda arab atamalaridan, boshqalarida arab va ingliz tili aralashmasidan va yana birlarida bank faoliyati amalga oshirilgan mamlakatning mahalliy tilidan foydalanilayotganini ko'rish mumkin.

Shariat tamoyillari asosida islomiy bank ishi yuritayotgan mamlakatlar to'g'risida keyingi boblarda tanishib chiqamiz.

Qanday atamalardan foydalanishidan qat'i nazar, islomiy bank tizimidagi shariat tamoyillarini 5 toifaga ajratish mumkin. **Birinchi** toifa foyda va zararlarni taqsimlash tamoyili, **ikkinchisi** oldi-sotdi tamoyili, **uchinchi** toifa o'z ichiga yig'im va komissiyalarni oladi. **To'rtinchi** toifa bepul xizmat tamoyillarini, **beshinchisi** esa yordamchi tamoyillarni bayon etib beradi.

Quyidagi tamoyillar aksariyat islomiy banklar tomonidan ko'p holatlarda amaliyotda ishlatiladi: muzoraba, mushoraka, murobaha, ijara, ijara val-iqtino, muajjal bay, istisno', qarzi hasan, vadia, rahn. Sanab o'tilganlardan tashqari islomiy moliyalarning boshqa tamoyillaridan ham amaliyotda foydalaniladi. Masalan, Malayziyada dayn bay, ijara tumma bay, vakolat, havola, ujr va vadia yad damana tamoyillari tarqalgan. Eronda ham bir talay qo'shimcha tamoyillar: joala, mozaraax, mosakat kabi tamoyillar kiritilgan. Bunday ko'p miqdordagi shariat tamoyillarining ishlatilishi ba'zi taxminlarga sabab bo'ladi va ushular haqiqatdan ham shariatga asoslangan islomiy moliyalash vosi-talarimi yoki hiylalarmikan, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Hiyla – musulmon huquqchiligida shariatga unchalik muvofiq kelmaydigan turli huquqiy sxemalarni ishlatib, ma'lum maqsadga erishish yo'llaridir. Islom huquq-shunoslari o'rtasida hiyla kontseptsiyasiga bir xil munosabat mavjud emas. Hanafiy huquqiy maktabi shariat mahsulotlarini yaratishda mazkur kontseptsiyani

qo'llashni ma'qullagan. Shofe'-iylar huquqiy maktabiga kelsak, garchi maktabning keyingi davomchilari hiylani ma'qullashsa-da, umuman olganda bu yo'nalish mavqeiga ziddir. Ikki boshqa huquqiy maktab (Molikiy va Hanbaliy) bu kontseptsiyadan foydalanishga qarshilik qilishadi. Molikiy mazhabi tomonidan saddad-daro'i tamo-yili belgilangan maqsadga erishish uchun qonunan ruxsat berilgan har qanday usulni, agar u dastlabki paytdanoq noqonuniy xarakterga ega bo'lgani yoki harom toifaga muvofiq kelgan hollarda sababning oldini olish tamoyili amalga kiritilganligi hiylani man etishni tasdiqladi. Hanbaliya mazhabi tomonidan ham hiyla kontseptsiyasidan foydalanishga qarshi ko'plab chiqishlar qilib kelinmoqda.

2. Mushoraka tamoyili

Mushoraka yoki *sharika* shartnomasi sherikchilik shaklini bildiradi. Shariat sharikani ikki toifaga: sharika mulk va sharik aqd toifalariga bo'ladi. Sherikchilikning boshqa shakli – muzoraba qoidaga ko'ra aksariyat islomiy huquq kitob-larida alohida ko'rib chiqiladi. Umuman, *sharika mulk* aniq bir mulkka birgalikda egalik qilishni ko'zlaydi va manfaatdor tomonlarning mulklarini birlashtirish yoki shakllantirish bo'yicha vaqtinchalik sherikchilikni o'z ichiga olmaydi. *Sharika aqd* esa, aksincha, kapitaldan birgalikda foydalanishga foyda hamda zararlarda ham bevosita qatnashish kontseptsiyasiga urg'u beradi (Saleh, 1986). Sharika aqd o'rnatishning uch xil usuli mavjud:

1. Agar sherikchilik o'rnatish uchun o'lchov sifatida naqd pullar ishtirok etsa, bunday sherikchilik *sharika mol* yoki *moliyaviy sherikchilik* deb ataladi.

2. Agar sherikchilik hamkorlarning malakasi va tajribasi bilan bog'liq bo'lsa, bunday shakldagi hamkorlik *ishchi hamkorligi* yoki *sharika amal* deb ataladi.

3. Quyilma yo'naltirilayotgan korxonada sherikchilik kredit yoki investitsiya asosida tuzilayotgan bo'lsa, bu sherikchilik *investitsion sherikchilik* yoki *sharika vaju* deb tan olinadi. Sherikchilik cheklanmagan, teng huquqli (Hanafiy mazhabi

bo'yicha mufovaza) yoki iymon asosidagi *sharika inon* sherikchiligi sifatida ham o'rnatilishi mumkin.

Islomiy banking talqinida mushoraka tamoyili mas'uliyati cheklangan investitsion sheriklik (inon sharika mol) bilan bog'liq bo'ladi. Oddiy tilda aytganda, mushoraka deganda ikki tomon o'rtasidagi foyda olish maqsadida ma'lum bir loyiha yoki ishchan amaliyot bilan ishtirok etuvchi qo'shma korxonaga to'g'risidagi shartnoma tushuniladi. Shartnoma vaqt yoki belgilab olingan maqsadning bajarilishi bilan bekor bo'ladi. Ushbu tamoyilga ko'ra bitimni imzolagan har ikki tomon etarli miqdordagi kapitalni ta'minlaydi: investor yoki kreditor boshqarishda qatnashishi ham mumkin.

Sheriklar o'rtasidagi foyda va zararlar taqsimoti avvaldan belgilangan bo'ladi va qo'shilgan quyilmalar hajmi ulushiga mos kelishi shart emas.

Adabiyotlar ruyhati

Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). (2015). *Shariah standards* (No. 1–57). Manama, Bahrain: AAOIFI.

Iqbal, Z., & Mirakhor, A. (2011). *An introduction to Islamic finance: Theory and practice*. Singapore: Wiley.

Khan, T., & Ahmed, H. (2001). *Risk management: An analysis of issues in Islamic financial industry*. Jeddah: Islamic Research and Training Institute (IRTI), Islamic Development Bank.

Usmani, M. T. (2002). *An introduction to Islamic finance*. Karachi: Idaratul Ma'arif.

Uzair, M. (1980). *Interest-free banking*. Karachi: Royal Book Company.

Ibn Rushd. (1996). *The distinguished jurist's primer (Bidayat al-Mujtahid wa Nihayat al-Muqtasid)* (I. K. Nyazee, Trans.). Reading, UK: Garnet Publishing.

Al-Sarakhsi, M. (1993). *Al-Mabsut* (Vols. 1–30). Beirut: Dar al-Ma'rifa.